

*Toshkent arxitektura-qurilish
universitet rektorining 2024-yil
17-oktyabrdagi 403-sont
buyrug'iga
8-ilova*

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti korrupsiyaga qarshi kurash
tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish
REGLAMENTI**

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (keyingi o‘rinlarda - Universitet)da korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi to‘g‘risidagi hisobdorlikni shakllantirish tartibini belgilaydi.

2. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va rivojlanishi masalalari bo‘yicha hisobotlari (keyingi o‘rinlarda - Hisobotlar) shakllantirish va taqdirn etish uchun mas’uliyat universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi yoki mas’ul xodimlari zimmasida (keyingi o‘rinlarda - Ichki nazorat tuzilmalari) bo‘ladi.

Universitetning bo‘linmalari hisobotni taqdim qilish uchun mas’uliyat korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat uchun mas’ul xodim (keyingi o‘rinlarda - Mas’ul xodim) zimmasida bo‘ladi.

II-bob. Hisobot turlari va uni tuzish davriyiligi

3. Universitetda quyidagi hisobot turlari nazarda tutiladi:

a) Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi, shu jumladan, universitetning korrupsiyaga qarshi dasturi yoki yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishi bo‘yicha hisobot har chorakda Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan mazkur Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

b) Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturida rejalshtirilgan tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot har chorakda Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan mazkur Nizomning 4-bobida belgilangan tartibda tuziladi.

4. Hisobot muntazam ravishda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda, universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatidan, shuningdek hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tadbirlar o‘tkazilgan yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, tuziladi.

5. Yilning IV-choragi uchun hisobot o‘tkazilmaydi, uning o‘rniga yillik hisobot tayyorланади.

6. Har choraklik va har yillik hisobot universitet rektoriga topshiriladi. Universitetning ichki nazorat tuzilmasi har chorakda, keyingi chorak bиринчи oyining 25 sanasidan kechiktirmay universitetning har choraklik umumiy hisobotini O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat bo‘limiga (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) ko‘rib chiqishi uchun kiritib boradi.

7. Universitetning yillik hisobotidagi umumiy axborot Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi. Mazkur axborot universitetning ichki nazorat tuzilmalari tomonidan tayyorlanadi.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobotni shakllantirish tartibi

8. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi hisobot korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish, shuningdek universitetning korrupsiyaga qarshi Dastur yoki Yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida tuziladi.

9. Hisobot har chorakda Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 20 sanasidan kechiktirmay tuziladi va universitet rektorikga ko‘rib chiqish uchun topshiriladi.

10. Hisobotni shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) hisobot davridan keyingi oyning 2 sanasidan kechiktirmay, universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi mas’ul xodimlarga ushbu oyning 10 sanasigacha tegishli rahbarlar tomonidan tasdiqlangan mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq hisobot taqdim etishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi;

b) universitet bo‘linmalarming hisoboti bo‘linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishiga ma’sul bo‘lgan rahbar o‘rnbosari tomonidan tuziladi va universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi raxbari tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to‘g‘risidagi hisobotning biron-bir bo‘limi bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilmagan taqdirda, tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababini ko‘rsatish lozim;

v) Hisobotlarga kiritilgan axborot tegishli hujjatlar nusxalari va boshqa ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi kerak;

g) Universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi ushbu Nizomga 2-ilovada ko‘rsatilgan shaklda universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tizimning faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiy hisobotni tuzadi hamda qo‘sishimcha ravishda unga ushbu Nizomga 1-ilovadagi shakl bo‘yicha Universitet tizimi bo‘yicha tuzilgan hisobotdagi ma’lumotlarni kiritadi.

Hisobotda asosiy axborotni o‘zida aks ettirgan qisqacha ma’lumotnomasi va takliflar bo‘lishi kerak. Yillik hisobot o‘z ichiga o‘tgan yilning xuddi shunday ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan solishtirma taxlilni ham qamrab olishi kerak.

11. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi hisobotlar va universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiy hisobotni tuzishda

Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tegishli bo‘linma xodimlaridan zarur hujjatlar, tushuntirish va statistikani so‘rash va olish huquqiga ega.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi qisqa ma’lumotnomalar bilan biriktirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiyligi hisobotini hisobot davridan keyingi oyning 21 sanasigacha universitet rektoriga taqdim etadi.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashga oid davlat dasturlarida rejorashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish tartibi

13. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejorashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturida rejorashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiyligi hisobot bilan bir vaqtida tuziladi.

15. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturida rejorashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi hisobot rektor tomonidan ko‘rib chiqilgandan keyin Vazirligga yuboriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

16. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va universitetning ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilgan taqdirda ushbu Nizom qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritishga universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi mas’ul bo‘ladi.

Toshkent arxitektura- qurilish universiteti
korrupsiyaga qarshi kurash tiziminining
holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish
va taqdim etish bo‘yicha nizomiga
1-ilova

Toshkent arxitektura-qurilish universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tiziminining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobot

| | | | | | | | |
|---|----------------------------------|--|--|--|--|--|--|
| Universitet nomi: | | | | | | | |
| Hisobotni tayyorlagan xodim (Korruptsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ullar): | FISH, lavozimi, tuzilmasi | | | | | | |
| Hisobot davri: | | | | | | | |
| Hisobot tayyorlangan sana: | | | | | | | |

| T/r | Tadbirlar guruxining nomlari | Tadbirlarning nomlari | Bajaralish muddati | Ma’sul ijrochilar | Ijro to‘g‘risidagi belgi | Ijro etilmagan bo‘lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat | Bajarilganlikni tasdiqlash, bajarilmagan bo‘lsa sabablari |
|-----|------------------------------|-----------------------|--------------------|-------------------|--------------------------|--|---|
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |

| T/r | Tadbir | Natijalar |
|---------------------------------------|--|---|
| I. Siyosatlar va protseduralar | | |
| 1. | Ichki xujjatlarni moslashtirish | Universitetda hisobot davri uchun moslashtirilgan korrupsiyaviy xavf- xatarlarni kamaytirish bo‘yicha choralar yoki korrupsiyaga qarshi kurasliishga oid tartib-taomillarga ega bo‘lgan ichki hujjatlarni (<i>siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘rignomalar va sh.k.</i>) ko‘rsatish zarur. |
| 2. | Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korruptsivaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlah chiqish. | Hisobot davrida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga kiritilgan sohalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni (<i>siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘rignomalar va sh.k.</i>) ko‘rsatish zarur. |
| II. Shaxsiy namuna | | |
| 3. | Universitet rektori va uning muovinlarining ichki tadbirlardagi chiqishlari (nutqi). | 3-6-bandlarda Universitet rektori va uning muovinlarining qonunchilik talablariga rioya qilish. korrupsiyaga nisbatan nuirosasiz bo‘lish, tarkibiy bo‘limnada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarga amal qilislining muhimligi to‘g‘risidagi pozitsiyasi, fikr mulohazalari ochiq e’tirof etilgan tadbirlarni ko‘rsatish lozim. |
| 4. | Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish (Universitet rektori va uning muovinlarining nomidan). | |
| 5. | Universitet rektori va uning muovinlarining OAVdagi fikr-imilohazalari. | |
| III. Xvf-xatarlarni baxolash | | |
| 6. | Universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo‘yicha har villik baholash o‘tkazish | Ha o‘tkazilgan yo‘q otkazilmagan (sabablari ko‘rsatiladi) jarayonda (qaysi bosqichdaligi ko‘rsatiladi) |
| 7. | Hisobot davri uchun Universitetda ish jarayonda yangi aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o‘rta, past). | Yangi korruptsivaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi. ularning darajasi sanab o‘tiladi. Qanday korruptsiyaviy xavf-xatarlar qayta baholandi. yangi daraja, |

| | | |
|--|--|--|
| | | bahoni o'zgartirishi sabablari va korruksiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha takliflar. Universitetning korruksivaviy xavf-xatarlar xaritasi ilova qilinadi. |
| 8. | Hisobot davrida aniqlangan korruksiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar | |
| 9. | Qoldiq korruksiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan aniqlanaan korruksiyaviy xavf-xatarlar soni | Qoldiq tavakkal yuqori bo'lgan korruksiyaviy xavf-xatarlarning foizdagi nisbati ko'rsatiladi |
| 10. | Qoldiq korruksiyaviy xavf-xatar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korruksiyaviy xavf-xatarlar soni | Qoldiq korruksiyaviy xavf-xatarlar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan korruksiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko'rsatish zarur. |
| IV. Korruksiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar | | |
| 11. | Universitetda aniqlangan manfaatlar to'qnashuv holatlari va qabul qilingan choralar | Universitetda aniqlangan manfaatlar to'qnashuv holatlaring sonini ko'rsatish yoki aniqlangan manfaatlar to'qnashuv holatlari reyestagini ilova qilish zarur. |
| 12. | Xodimlar tomonidan xar yili manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilishi. | Har yillik manfaatlar to'qnashuvini deklaratsivalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning universitetdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. Har yili manfaatlar to'qnashuvni deklaratsiyasini amalga oshirishi shart bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning universitetdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. |
| 13. | Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni. | Universitetga ishga qabul qilingan xodimlar sonini va universitetdagi lavozimga nomzodlar tekshiruv sonini ko'rsatish zarur. Tekshiruv o'tkazihagan bo'la sababini ko'rsatish zarur. |
| 14. | Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshinivlari soni | Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshinivlari sonini, tekshiruvlar natijalari bo'yicha ijobjiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur, tekshiruv o'tkazilmagan bo'lsa sababini ko'rsatish zarur. |
| 15. | Amalga oshiriladigan boshqa korruksiyaga qarshi tartib-taomillar | Mavjud bo'lganda ushbu bo'limda ko'rsatilmagan boshqa amalga oshiriladigan korruksiyaga qarshi tadbirlarni ko'rsatish. |
| V. Ta'lim va kommuunikasiya | | |
| 16. | Korruksiyaga qarshi kurashish masalalari bo'ycha treninglar o'tkazish: barclia xodimlar uchun; korruksiyaviy tavakkalchilikka eng ko'proq movlilik ehtimoli bo'lgan vazitalarni bajamvchi bo'linmalar udnim. | Treninglar turi va shakli, o'qitilgan xodimlar soni, ularning lavozimlari darajasi va bo'linmalarni ko'rsatish. |
| 17. | Universitetga yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o'tkazish. | Korruksiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglardan (umumiy, tanishuv) o'tgan yangi xodimlarni umumiy yangi xodimlar soniga foizlardagi nisbati treninglar mavzusi kesimida ko'rsatish. |
| 18. | Xodimlarning korruksiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo'linmada amalga oshirilayotgan korruksiyaga qarshi chorallardan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar | Tadbir ishtiokchilarning maqsadli guruhini, ularni soni (imkon bo'lsa), mavzusi va turini (masalan, tanlovlari, viktorinalar, so'rovnomalar va b. ko'rsatiladi) va uning yakunlarini ko'rsatish. |
| 19. | Korruksiyaga qarshi kurash uchun mas'ullar tomonidan bajarilgan korruksiyaga qarshi kurash me'yorlari mavzusida axborot-tarqatma materiallari. | Korruksiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga amal qilish zaruriyatini to'g'risidagi, shu jumladan, ularning to'g'ri talqin qilinishi va ularga to'g'ri amal qilish to'g'risidagi xabarnoma va boshqa tarqatma materiallari. |
| 20. | Xodimlarning odob-axloq madaniyatini shakllantirish, ularni korruksiyaga qarshi kurash tizimi va korruksiyaga qarshi qonunchilikning talablari haqida xabardor qilishning boshqa usullari. | Masalan, binolardagi axborot plakatlari va boshqa materiallar, skrinsvayerlar, ishchi kompyuterlar ekraniga qo'yiladigan suratlar va boshqalar. |
| 21. | Fuqarolik jamiyati va bo'linma kontragentlari uchun korruksiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish | Fuqarolik jamiyati vakillari uchun korruksiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishning soni, nomlanishi, mohiyati va natijalarini ko'rsatish (masalan, korruksiyaga qarshi kurash kuni, korruksiyaga qarshi mavzudagi ishlar tanlovi). |

| | | |
|---|---|--|
| | | Shartnomalariga korrupsiyaga qarslii qo'shimcha shartlar kiritilgan yangi kontragentlarning umumiy soniga foizlardagi nisbati. |
| VI. Korupsivaviy hatti-xarakatlar va qoidabuzarliklar to'e'risidagi xabarlar. Ta'sir choralari | | |
| 22. | Xatti-xarakatlar, shu jumladan, potensial xatti-xarakatlar uchun aloqa kannalariga kelib tushgan xabarlar soni | Xabarlar sonini quyidagi ma'lumotlarni ham kiritgan holda ko'rsatish: kelib tushgan sanasi kelib tushgan aloqa kanali, xabar mavzusi, tegishli hisobotni ilova qilish. |
| 23. | Xizmat tekshiruvi o'tkazilgan; Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to'g'risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan; Bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida); Aybdorlar aniqlanaan holatlar soni. | Har bir band bo'yicha holatlar sonini ko'rsatish. |
| 24. | Qabul qilingan ta'sir choralari. | Qanday correksiyalash choralar, shu jumladan, intizomiy choralar, ichki nazorat tizimida qanday kamchiliklar aniqlandi va nazoratni kuchaytirish uchun qanday choralar taklif qilindi. |
| VII. Monitoring va nazorat | | |
| 25. | Hisobot davrida inavjud korrupsiyaga qarshi kurashish talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillar bajarilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilganligi | Universitetda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha inas'ullar tojonidan o'tkazilgan tekshiruv tadbirlarini, shu junltadan, ularning sonini quvidagi kesimda ko'rsatish Tekshiruv ob'ektlari (boshqarma, ho'lim); Tekshiruv inavzusi (inasadan, xaridlar, kadrlar); Tekshiruv tadbirlari turi (audit, tavakkal tranzaksiyalari monitoringi yoki protseduralari va b. l); Tekshiruv tadbirlari xarakteri (reiali, reiadon tashuari). |
| 26. | Bo'linmada belgilangan nazorat tadbirlari va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo'llanilgan ta'sir choralari? | Qaysi tartib-taomil yoki vazifani bajarishda qanday qoidabuzarliklar aniqlangan? Aniqlangan holatlar sonini ko'rsatish. Vazifa va tartib-taomillarni bajaruvchi shaxslar uchun qanday tavsiyalar tayyorlangan. Ular qanday rasmiylashtirilgan (masalan, buyruq yoki boshqa ichki hujjatlar)? |

Xulosalar: Universitetda korrupsiyaga qarshi choralarini amalga oshirishning asosiy natijalarini ko'rsatish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatiga umumiy baho berish zaruriyat tug'ilganda avvalgi davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o'tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini ko'rsatish zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va correksiyalovchi tadbirlar rejasidagi: kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlari ko'rsatish zarur.

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati
to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim
etish bo‘yicha nizomiga
2-ilova

**Toshkent arxitektura-qurilish universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida 202_yil -chi chorak uchun
UMUMIY HISOBOT**

**I. Universitetning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi
bajarilgani to‘g‘risida umumiyl axborot**

Universitet tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi qisqa ma’lumot, shu jumladan bo‘linmalar kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirgan bo‘linmalar sonini ko‘rsatish zarur;

Tarkibiy bo‘linmalar kesimida Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarni amalga oshirmagan bo‘linmalar ko‘rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi, amalga oshirilmagan tadbirlar va qisqacha-asosiy sabablarini alohida ko‘rsatish lozim.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohalarni tartibga soluvchi, va hisobot davrdaa universitetda bo‘limlar kesimida tatbiq etilgan korrupsiyaga qarshi sohasiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy va ichki hujjatlar (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va shu kabilar)ni ko‘rsatish lozim.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Universitet tomonidan xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirgan va o‘zlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar matritsasini yangilagan tarkibiy bo‘linmalar kesimida ko‘rsatish kerak;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmagan universitet kesimida ko‘rsatiladi, shuningdek hisobotga ilovada ularning nomi va ularning bajarilmaganligi sabablari qisqacha ko‘rsatiladi;

Baholash jarayonida yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar tarkibiy bo‘linmalari kesimida ko‘rsatiladi. Shuningdek, hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo‘yicha taklif etilgan va amalga oshirilgan tadbirlar qayd etiladi;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo‘yicha nisbati (yuqori, o‘rta, past) bo‘linmalari kesimida ko‘rsatiladi;

Universitet kesimida yuqori bo‘lgan qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko‘rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun taklif etilayotgan tadbirlarni ko‘rsatish lozim (mavjud bo‘lgan taqdirda).

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarslii kurashish tartib taomillar manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalangan va tartibga solingan holatlari soni, shu jumladan, ishga qabul qilish, har yillik deklaratsiyalash jarayonida (mavjud bo‘lgan taqdirda), bo‘linmalar kesimida ko‘rsatiladi;

Universitetda manfaatlar to‘qnashuvini tarkibiy bo‘linmalari kesimida manfaatlar to‘qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan o‘tgan xodimlarning umumiyligi xodimlar soniga foizlardagi nisbati, shuningdek, deklaratsiyalangan va tartibga solingan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari qayd etiladi;

Universitet bo‘yicha rejalashtirilgan manfaatlar to‘qnashuvining har yillik deklatsiyalanadigan manfaatlar to‘qnashuviga nisbatan ko‘rsatkichlari bajarilmagan universitet kesimida tahliliy ma’lumotlarni keltirish kerak (masalan, manfaatlar to‘qnashuvini barcha rahbarlar deklaratsiyalashi lozim, amalda esa faqat 50% gina rahbar buni bajargan);

Universitet kesimida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi va qabul qilingan choralar bo‘yicha, shu jumladan, umumiyligi soni va toifalar kesimida (*masalan, xarid protseduralaridagi, ish bo‘yicha bevosita bo‘ysunish natijasida va shu kabilarda*) tahliliy ma’lumotlarni keltirish lozim.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni universitet shartnomalariga kiritish

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni universitetning xo‘jalik shartnomalariga (shartnomalarning foizli nisbati) kiritish bo‘yicha, shu jumladan universitet kesimidagi kontragentlar tahririda tahliliy ma’lumotlarni keltirish, kontragentlarning korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishni rad etish sabablarini ko‘rsatish;

Universitet kesimida tizimida kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalari buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni ko‘rsatish.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo‘yicha o‘tkazilgan tekshirishlar soni, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati universitet kesimida ko‘rsatiladi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Universitet kesimida ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar sonini ko‘rsatiladi.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishning natijalarini universitet kesimida: o‘qitilgan xodimlarning foizdagi nisbati, ta’lim shakli (bevosita/onlayn) ko‘rsatiladi;

Universitet kesimida o‘qitish darajasi past bo‘lgan korrupsiyaga qarshi ko‘nikmalarga oid axborot ko‘rsatiladi (rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga taqqoslangan holda);

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kommunikatsiya turlari va sonini universitet kesimida (masalan, tarqatmalar, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish) ko‘rsatiladi;

Bo‘limda shuningdek, Universitet tizimida o‘tkazilgan keng ko‘lamli alohida tadbirlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘risidagi xabarlar

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar universitet kesimida ko‘rsatiladi;

Mansab vazifalari va tartib-taomillar kesimida olingan tahliliy ma’lumotlar (masalan, xaridlar jarayonida, kadrlarni ishga qabul qilish bilan bog‘liq tartib-taomillarda) keltiriladi;

Olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar qoidabuzarliklar kesimida keltiriladi (masalan, korrupsiyaviy xatti-xarakatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, kelishuv tartib- taomillarini protseduralarini buzish va boshqalar);

Olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar aloqa kanallari kesimida keltiriladi (masalan, ishonch telefoni, bevosita xabar berish va boshqalar).

VII. Monitoring va nazorat

Universitet kesimida hisobot davrida mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib- taomillarning bajarilgani to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keltiriladi, shu jumladan, tekshiruvlar o‘tkazilgan soni, shuningdek, tekshiruv o‘tkazilgan vazifalar va tartib-taomillarining davriyligi va xarakteri to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar (rejadagi, rejadan tashqari) ko‘rsatiladi;

Universitet kesimida tekshiruvlar o‘tkazilmagan bo‘linmalar soni alohida ko‘rsatiladi, ilovada ularning nomi hamda tekshiruvlar o‘tkazilmaganligining asosiy sabablari qischacha qayd etiladi;

O‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari to‘g‘risidagi umumiyligi axborot ko‘rsatiladi shu jumladan, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati qayd etiladi. Qoidabuzarliklar mavjud bo‘lsa, mazkur hisobotning VIII-bo‘limga havola beriladi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi talablarning buzilganligi to‘g‘risida universitet kesimida tahliliy ma’lumotlarni ko‘rsatiladi, shu jumladan:

qoidabuzarliklarning umumiy soni;

qoidabuzarliklarning qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi axborot manbalari bo‘yicha tuzilmasi (“ishonch telefoni”, bevosita xabar berish, monitoring va nazorat natijalari va boshqalar);

Universitet ichki hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar va tartib-taomillar bo‘yicha (xaridlar, kadrlarga oid masalalar va b.) qoidabuzarliklar tuzilmasi;

Universitetda qabul qilingan ta’sir choralari to‘g‘risida tahliliy ma’lumotlarni bo‘linmalari kesimida ko‘rsatish, shu jumladan:

O‘tkazilgan umumiy tadbirlar soni va aniqlangan barcha qoidabuzarliklar bo‘yicha ta’sir choralar ko‘rilganligi yoki ko‘rilmaganligi;

ta’sir choralari turlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar (aybdorlarni javobgarlikka tortish, shu jumladan, javobgarlik turlari kesimida; Universitet tizimi jarayon va ichki hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish va boshqalar), shu jumladan, zarur bo‘lgan holda qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qanday tadbirlarni tatbiq etish taklif etilmoqda va hisobot davrida qanday tadbirlar tatbiq etilganligi ko‘rsatiladi.

IX. Xulosalar

Universitet kesimida korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalari ko‘rsatiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatiga umumiy baho beriladi. Zaruriyatga ko‘ra avvalgi davrlardagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslama tahlil o‘tkaziladi, qoniqarli natjalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini qayd etiladi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasи

Keyingi hisobot davrida universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko‘rsatkichlarni universitet kesimida yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlar ko‘rsatiladi.

Toshkent arxitektura qurilish universitetida
korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati
to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va
taqdim etish bo‘yicha nizomiga 3-ilova

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturida rejalashtirilgan
tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi
HISOBOT**

| T/r | Tadbirlar nomi | Bajarish muddati | Amalga oshirilgan choralar |
|-----|----------------|------------------|----------------------------|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

